XALQ DEPUTATLARI XO‘JAOBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 25-oktabr VI-52-79-1-27-K/24 Xo‘jaobod tumani

Xo’jaobod tumani Qorabuloq mahalla fuqarolar yig’ini hududidagi ko’cha nomini o’zgartirish to’g’risida

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo’lish va tugatish, shuningdek, ularning chegalarini belgilash va o’zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o’zgartirish tartibi to’g’risida”gi Nizomni tasdiqlash haqidagi 2014-yil 4-mart kungi 48-son qarori, O’zbekiston Respublikasining 2013-yil 22-aprel kungi “Fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish organlari to’g’risida”gi O’RQ-350-sonli Qonunining 5, 10, 25, 27, 31-moddalari hamda O’zbekiston Respublikasi “Mahalliy Davlat hokimiyati to’g’risida”gi Qonunining 6- ва 25-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I

1. Toponomik obyektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi tuman komissiyasining 2024-yil 5-avgustdagi **“Xo’jaobod tumanidagi Qorabuloq mahalla fuqarolar yig’inidagi Tarannum nomli ko’cha nomini o’zgartirish to’g’risida”**gi yig’ilish bayoni, tuman hokimining o’rinbosari R.Egamberdiyevning 2024-yil 8-avgust kungi № 06/16-4715-sonli xati va Xo’jaobod tumani Qorabuloq mahalla fuqarolar yig’ini Kengash a’zolarining shu haqdagi 2024-yil 28-fevraldagi yig’ilish bayoni ma’lumot va asos uchun qabul qilinsin.

2. **“Qorabuloq”** mahalla fuqarolar yig’inidagi **“Tarannum”** nomini **“Sho’robod”** ko’chasi nomiga o’zgartirish bo’yicha takliflari va xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlarining fikrlari ma’qullansin.

3. Mahalla uyushmasi tuman bo’limi boshlig’i (**A.Madraximov)ga**:

-hududidagi ko’cha nomiga o’zgartirish kiritilgan mahalla fuqarolar yig’ini aholisi o’rtasida tushuntirish ishlari olib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Xo’jaobod tuman Kengashining Ijtimoiy-madaniy rivojlantirish masalalari bo’yicha doimiy komissiyasi (M.Turg’unova) zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi



ABDURAIMOV
ELYORBEK
MUXTAROVICH